

Kamolaxon Raxmonova

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
San'atshunoslik instituti
“Teatr va xoreografiya” bo'limi mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: rahmonovakomola91@gmail.com
ORCID: 0009-0006-3088-155X*

O'LMAS UMARBEOV ASARLARI ASOSIDAGI SPEKTAKLLARDA YOSHLAR OBRAZLARI VA AXLOQIY MUAMMOLAR TALQINI

***Annotatsiya.** Maqolada yangi davr o'zbek teatrida O'lmas Umarbekov qalamiga mansub yoshlar mavzusidagi asarlarning sahnaviy – badiiy yechimi, yoshlar obrazining xarakter xususiyatlari tahlil etiladi. Tahlil jarayonida ushbu asarlarning yoshlar auditoriyasiga ta'siri, zamonaviy teatr jarayonlaridagi ahamiyatiga e'tibor qaratiladi.*

***Kalit so'zlar:** O'lmas Umarbekov dramaturgiyasi, zamonaviy o'zbek teatri, yoshlar masalalari, axloqiy muammolar, badiiy-estetik yechim, aktyorlik talqini.*

ОБРАЗЫ МОЛОДЁЖИ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НРАВСТВЕННЫХ ПРОБЛЕМ В СПЕКТАКЛЯХ, ПОСТАВЛЕННЫХ ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ УЛМАСА УМАРБЕКОВА

***Аннотация.** В статье анализируются сценические и художественные решения произведений У.Умарбекова, посвящённых молодёжной тематике, в узбекском театре нового периода, а также характерные особенности образов молодых героев. В процессе исследования особое внимание уделяется влиянию данных произведений на молодёжную аудиторию и их значению в современных театральных процессах.*

***Ключевые слова:** драматургия Улмаса Умарбекова, современный узбекский театр, проблемы молодёжи, нравственные проблемы, художественно-эстетическое решение, актёрская интерпретация.*

YOUTH CHARACTERS AND THE INTERPRETATION OF MORAL ISSUES IN STAGE PRODUCTIONS BASED ON THE WORKS OF O'LMAS UMARBEOV

Abstract. *This article analyzes the stage and artistic interpretation of works devoted to youth themes written by O'Lmas Umarbekov in contemporary Uzbek theatre, with particular attention to the distinctive character traits of young protagonists. The study also examines the impact of these productions on young audiences and highlights their significance within contemporary theatrical processes.*

Keywords: *O'Lmas Umarbekov's dramaturgy, contemporary Uzbek theatre, youth issues, moral problems, artistic and aesthetic interpretation, acting interpretation.*

Mustaqillik yillarida o'zbek teatr san'atida yoshlar mavzusini yoritishga qaratilgan sahna asarlarining badiiy va g'oyaviy ko'lami sezilarli darajada kengaydi. Ayniqsa, insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy tanlovlari, oilaviy tarbiya, qadriyatlar inqirozi hamda shaxs kamoloti bilan bog'liq masalalarni yorituvchi dramaturgik asarlar zamonaviy teatr repertuarida muhim o'rin egallamoqda. Shu jihatdan O'lmas Umarbekov ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Adibning "Fotima va Zuhra", "Odam bo'lish qiyin" kabi asarlarida yoshlar hayotiga oid ijtimoiy va axloqiy muammolar chuqur badiiy talqin etilgan bo'lib, ularning sahna talqinlari ham teatrshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy tahlil qilishni talab etadi.

Ular orasida yoshlar xarakterining murakkab qirralarini namoyon qilgan asarlardan biri, mustaqillikning ilk yillarida – 1995-yil Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida sahnalashtirilgan O'lmas Umarbekovning "Fotima va Zuhra" romani asosidagi "Fotima va Zuhra" spektaklidir. Rustam Ma'diyev tomonidan inseniroyka qilingan ushbu asar nafaqat badiiy qiymati, shuningdek eng asosiysi, unda o'tkir psixologik dramatism asosida yaratilgan obrazlar, ularning auditoriyaga bevosita badiiy-estetik ta'siri bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, kuchli va haqqoniy xarakter spektaklning muvaffaqiyatini ta'minlashdagi muhim omillardan biridir. Nasriy asarda xarakter yaratish, dramaturgiyaga nisbatan biroz yengilroq. Ya'ni, nasrning bu boradagi imkoniyati

ko'p. Zero, bu adabiy turda muallifning o'zi qahramonning xarakteri haqida to'liq gapirib berishi yoki turli uzun voqea va xatti-harakatlar orqali xarakter qirralarini ochib berishi mumkin. Spektakl vaqti esa chegaralangan. Ana shu qisqa vaqtda muallif ilgari surgan g'oyani badiiy yaxlitlikda olib chiqish alohida mahorat talab etadi. Shu ma'noda "Fotima va Zuhra" spektakli rejissyorlik ish va aktyorlik ijrosida professional va muvaffaqiyatli natijaning yorqin namunasidir. O'tish davrida jamiyatda kuzatilgan ijtimoiy-axloqiy muammolar, xususan, jinoyatchilikning kuchayishi fonida O'lmas Umarbekov romani asosida sahnalashtirilgan ushbu spektaklda hayot sinovlari qarshisida yolg'iz qolgan yosh qahramonlarning ruhiy kechinmalari va ma'naviy tanlovlari ishonarli va ta'sirchan badiiy talqin qilingan.

Yozuvchi va munaqqid Erkin Usmonov ushbu romanni detektiv asar sifatida, teatrshunos olimi Dilduza Rahmatullayeva esa sarguzasht romani sifatida baholaydi. Asarning sahna talqinida yoshlar hayotiga oid asosiy dramatik voqealar va xarakterlarni ochishga xizmat qiluvchi epizodlar saralab olingan. Spektaklda detektiv syujet unsurlari asosan dialoglar orqali ifodalangan bo'lsa, musiqali drama janrining xususiyatidan kelib chiqib, lirik sahnalar, qo'shiq va musiqiy lavhalar bilan boyitilgan. Natijada sahna asarida dramatik va lirik unsurlarning uyg'unligi ta'minlanib, uning emotsional ta'sirchanligi yanada kuchaygan.

Rejissyor Rustam Ma'diyev aynan murakkab xarakterga ega personajlar – egizak qizlar taqdiri aks etgan asosiy psixologik sahnalarni, ularning achchiq qismatlarini ifodalovchi syujet chiziqlarini tanlab olib, qahramonlarning jonli, ta'sirchan, to'laqonli tasviriga erishdi. Va bu o'z navbatida spektakl muvaffaqiyatini ta'minladi. Spektakl psixologizmga boy. Hayotiy faktlarga asoslangan voqea sahnada ham haqqoniy tasavvur uyg'otadi. Voqealar dinamikasi sahna sayin rivojlanib, murakkablashib borishi, uning tomoshaviyligini oshirgan. Asarda tashqi ko'rinish va ruhiyat birligi mavjud. Asarda tasvirlangan his-tuyg'ular spektaklga ham ko'chgan.

Fotimadagi quvnoqlik, xokisorlik, orzularga to'la qalbni, Zuhradagi yigitlardagi kabi iroda, epatchilik, tavakkalchilik, shartakilik, sho'xchan va ziyraklik

kabi xususiyatlar sahnada individual xarakter yaratishga yordam bergani shubhasiz. Bunda rejissyor tomonidan aktyorlar jamoasi, jumladan asosiy qahramonlar uchun aktrisalarni to'g'ri tanlangani ham muhim rol o'ynagan. Zulayho Boyxonova va Ma'suda Otajonovalarning aktyorlik talqini roman qahramonlarining ichki kechinmalarini tabiiy va ishonarli gavdalantirgan.

Fotima o'z tabiatiga mos uylarni tozalash, hovli supurish, dasturxon tuzash kabi ishlarni bajarsa, Zuhra ham o'z fe'liga xos mollarni tagini tozalash, kert tayyorlash, sut sog'ish, tovuqlarga don berish kabi og'ir ishlarni bajaradi. Fotima maktabda faol, ilm olishga jiddiy kirishgan bo'lsa, Zuhra fermada yurishni, otlarni tomosha qilish, ot choptirishni yaxshi ko'radi. Sportga ham qiziqadi.

Zuhra obrazida individual xarakter yaqqol ko'zga tashlanadi. Kuchli iroda, adolat uchun beomon kurash, teran fikrlash, tezkor qarorlar uning yaxlit badiiy obraz ko'rinishida shakllanishiga olib kelgan. Uning jismoniy va ma'naviy faolligi spektakl tempo-ritmini ushlab tura olgan. Har ikki qahramon tabiatini ochib berishda musiqa, qo'shiq va raqslar muhim rol o'ynagan. Fotima va Zuhraning birgalikdagi raqs va qo'shiqlari ularning dialoglariga singib ketib, yaxlit voqeliklarni aks ettiradi.

Ma'suda Otajonova spektaklda ishlash jarayoni haqida shunday xotirlaydi: "Fotimaning o'z joniga qasd qilgan sahnasidan so'ng, Zuhraning to'liqinli ariyasi bor. Uni Zulayho Boyxonova shunday bir kuch, real hissiyotlar, ichki toshqin bilan ijro etadiki, tomoshabinlar bilan birga, sahna ortidagi aktyorlar, jumladan men ham personajlar dardiga haqiqiy ishonch bilan yig'lar edik. Har bir spektakl ijrosi biz uchun katta voqea, xursandchilik bilan birga, chuqur qayg'uni his etish, og'ir va o'ta murakkab hayotiy zarbani kechirgandek tuyg'ular bilan o'tar edi" [3]. Bunday psixologik jarayon nafaqat aktyorlar, balki tomoshabinlardan ham ruhiy tayyorgarlik talab etadi. Tomoshabinlar keskin kurash jarayonidagi qayg'uli voqealardan larzaga kelganlari tabiiy. "Bir onaxon aktyorlar xonasiga kelib, "Fotimani ijro etgan aktrisa rostdan ham tirik ekanligini ko'rmay ketmayman. Uni ko'rishim kerak", – deb turib olgani esimda, deya xotirlaydi Ma'suda Otajonova.

Hovli o'rtasidagi katta majnuntol Fotima va Zuhra obrazlarining timsoli sifatida gavdalanadi. Fotima va Zuhra taqdiri majnuntolning ikki katta shoxlarida aks etadi. Uzun va yam-yashil kokillarini yerga tashlab, qizlarning sho'xchan o'yin-kulgi, hazil-mutoyibalariga boqib turgan majnuntol sodir bo'layotgan voqealardan ta'sirlanadi. Fotima va Zuhra majnuntol atrofida mustaqil hayotning ostonasidagi kelajakka bo'lgan ishonchlarini kuylasharkan, quyidagi qo'shiq sho'x raqslar bilan yangraydi:

“Tong otardan taraladi tuyg'ularim,
Qaldirg'ochdek qanot qoqar orzularim.
Salom yoshlik, salom bahor, gullar fasli,
Qo'shiq bo'lib jaranglaydi kulgilarim.

Qimorboz, bangi, jinoyatchi kimsalar tomonidan tahqirlangan Fotima singlisi bilan ikkovining yaxshi kunlariga guvoh majnuntolning shoxlarini silab, o'z joniga qasd qilish uchun kirib ketarkan, go'yo Zuhra bilan shu tarzda xayrlashadi. Rejissyor Rustam Ma'diyevning falsafiy topilmalaridan biri – bu majnuntol. Fotimaning halokati daraxtning bir shoxini quritadi. Majnuntol go'yo yarimtaga aylanadi. Yarmi yam-yashil yashnagan, yarmi sarg'ayib qurigan daraxt yaqindagina bo'lib o'tgan mudhish voqeadan xabar berib turadi.

Fotima – Ma'suda Otajonovanning hur qizlar bilan Zuhraning ko'z oldida paydo bo'lganida esa, majnuntol bir zumga bo'lsa-da ko'karib, yashnab ketganini ko'rish mumkin. Nayning yurakni ezuvchi hazin kuyi ostida Fotima hur qizlardan biroz yuqoriga ko'tarilib borarkan, dirijyor va sozanda Fotima bilan birga hamohanglikda harakat qilishadi.

Bo'lgan voqealar Zuhra – Zulayho Boyxonovani butunlay o'zgartiradi. Kechagina opasi bilan hazillashib o'ynab yurgan, o'yinqaroq, ferma va otlar bilan zavqlanishdan o'zga tashvishi yo'q o'smir qizaloq, hayot, odamlar haqida o'ta jiddiy mulohaza yuritadigan o'smirlar aylanadi. Mayor Aliyev bilan suhbatida buni yaqqol ko'rish mumkin: “Meni kechiring, siz ham tekshirib, ularni topa olishingizga

ishonmayman. O'zing uchun o'1, yetim". U bir kechada ulg'ayadi, butun oiladagi bor tashvishni o'z bo'yniga oladi.

Spektakl so'nggida Fotima Zuhra bilan xayrlasharkan, baxtli kunlarida singlisi bilan kuylashgan orzu-umidlarga limmo-lim sevimli qo'shiqlarini armon va iztirobga to'la ko'z yosh bilan kuylaydi:

“Tong otardan taraladi tuyg'ularim,
Qaldirg'ochdek qanot qoqar orzularim.
Salom, yoshlik, salom, bahor, gullar fasli,
Qo'shiq bo'lib jaranglaydi kulgilarim.

Zuhradagi pozitivlik, qo'rquvlar qarshisiga tik borish, sinovlardan mardona o'tish jasorati bugungi zamon yoshlariga ham namuna bo'la oladi.

Yoshlik umr bahori. Yoshlik davri hissiyot va kechinmalarga boy, xato va kamchiliklarga to'la, o'zini, o'zligini qidirish, topish fasli. O'lmas Umarbekovning yana bir – “Odam bo'lish qiyin” romanida ham yoshlikning anglash va anglanish, hayotdan o'z o'rnini topish bilan bog'liq murakkab jarayonlari o'z aksini topgan. Roman asosida 2010-yilda O'zbekiston davlat Satira teatrida sahnalashtirilgan spektakl yoshlarning ijtimoiy dolzarb muammolarini ochib berdi. Romanda muhabbat uchburchagini tashkil qilgan yosh qahramonlar Gulchehra, Abdulla va Sayyora bilan bog'liq voqealar tasvirida, ularning xarakterlarini ochishda eng kichik detallargacha e'tibor berilgani diqqatni tortadi. “Shunday xarakterlar ham borki, ular ko'p qirraliklari bilan namoyon bo'ladilar. Buni biz ularning zaruriyatli voqea-hodisalar bilan murakkab aloqalarining aks ettirilishida, ularga munosabatlarining bildirilishida yaqqol ko'ramiz” [1, 88-b]. Ana shunday murakkab xarakter qirralari asarda aks etgan yoshlarning zohiriy va botiniy kechinmalarida ko'rish mumkin. “Odam bo'lish qiyin” asari qahramonlari aynan shunday ichki kolliziyasi kuchli, drammatizmga boy, ko'p qirrali qahramonlardir. Ularni salbiy yoki ijobiy qahramonlarga ajratish qiyin. Bu yoshlarning o'z haqiqati bor, har bir xatti-harakatlarining o'z sababi bor. Sodir bo'lgan barcha voqea-hodisalar, murakkab munosabatlar ana shu yosh qahramonlarning ichki ruhiyatini ochishga xizmat

qilgan. “Dramaturg o‘z qahramonini murakkab, og‘ir vaziyatlarga qanchalik olib kirsam, uni qattiq qiyinchiliklarga qanchalik uchrata olsa, uning xarakteri shunchalik dramatik, puxta holda tashkil topadi” [1, 89-b]. Gulchehraning Abdulla bilan tanishgan vaqtidan o‘z joniga qasd qilguniga qadar bo‘lgan uzoq yo‘l, sevgidan nafrat va o‘lingacha bo‘lgan voqealar shunday real va maqsadli tasvirlangan. “Odam bo‘lish qiyin” romani rejissyor Po‘lat Fayziyev tomonidan “Sadoqat” nomi bilan sahnalashtirildi. Rejissyor asarga butunlay yangicha ruh bilan yondashdi. Roman ohanglari asosida yaratilgan spektaklda (insenirovka muallifi – Erkin Usmonov) personajlar xarakteri bugungi kun yoshlariga moslashtirilib, asar tilida ham bu o‘z aksini topdi. Umumiy g‘oya, voqealar va qahramonlar ismi saqlab qolingan bo‘lsa-da, insenirovka muallifi roman syujetni subyektiv qarashlari asosida zamonaviylashtirdi. Pyesada qishloqda qolib, uni obod qilishga intilayotgan yoshlar obrazlari kuchaytirildi, yangi voqealar qo‘shildi. Sahna variantida Abdullaning salbiy xislatlari bo‘rttirilib, Gulchehraning xatolari birmuncha yumshatildi. Sayyora esa faqat salbiy bo‘yoqlarda ko‘rsatildi. Vaholanki, O‘lmas Umarbekov Sayyorani musiqani yaxshi tushunadigan, bag‘rikeng, ko‘ngli ochiq, nozikta‘b qiz sifatida olib chiqqan edi. Umuman roman muallifi qahramonlarga yaxshi yoki yomon obraz sifatida baho bermaydi, ularga o‘z fikrini majburlab singdirib, sun‘iy harakatlantirmaydi. Xulosa chiqarish va obrazlarga baho berishni esa o‘quvchiga qo‘yib beradi. Shuning uchun, uning qahramonlari hayotiy, voqealar esa haqqoniy chiqqan.

O‘lmas Umarbekov Gulchehraning vafotiga sabab bo‘lgan voqeani shunchalik mahorat bilan tasvirlaydiki, o‘quvchi Gulchehraning o‘z joniga qasd qilganmi yoki bu baxtsiz tasodifmi sezmay qoladi. Yana bir jihatni e‘tiborga olish kerakki, yozuvchi Gulchehraning fojiasida, yoshlarning o‘ylamay qilgan xatolari qanday dahshatli yakun topishi mumkin ekanini juda ta‘sirli tasvirlagan. Bunga hayotiy misollar ham talaygina. “To‘qnashuv dialektik ravishda, kurashning keskinlashib borishi evaziga shiddatli tus olmasa, xarakterlar intilishi rivojini tomoshabin his qilmasa, tomosha tezda zerikarli bo‘lib qoladi. Demak, xarakterning

badiiy yaxlitligi, rolning o'z yechimiga mantiqan va izchil intilishiga zamin yaratadi" [4, 294-b]. Biroq, spektaklda xarakter rivoji finalga kelib, to'xtab qolgan: tragik xarakterning dramatik qahramonga aylanishi asarning badiiy kuchini muayyan darajada pasaytirgan. Shu o'rinda Aristotelning "Tragediyada – bizdan yaxshiroq, dramada – bizdek" [2, 9-b], deb bejiz ta'rif bermaganligini eslash o'rinli.

Asar voqealari yechimning ijobiy hal etilishi va zamonaviylashtirilishi e'tirofga loyiq holat hisoblanadi. Spektakl rejissyori sahnaviy yechimda asosiy g'oyani "Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin" fikriga yo'naltiradi. Ushbu g'oya Abdulla obrazi (aktyor Orif Rajabqulov) tilidan ifodalanadi. Agar aktyor bu fikrni oddiy bayonot tarzida emas, balki unga urg'u berib, ta'sirchan jaranglatganida, bu spektaklning mavzu va g'oyasini ochishga kuchliroq turtki bo'lgan bo'lar edi. Garchi ushbu vazifani spektakldagi "Odam bo'lish qiyin ekan" qo'shig'i bajargan bo'lsa-da, aynan shu o'rinda asarning psixologizmga boy ruhiyati sustlashgandek taassurot qoldiradi.

Demak, "aktyor yaratgan rolning xarakteri obraz darajasiga ko'tarilmas ekan, spektaklning badiiy yaxlitligi to'g'risida fikr aytish qiyin bo'ladi. Aktyor – dramaturg tomonidan asar g'oyasini ochish uchun personajga bergan xarakterini badiiy obraz darajasiga olib chiqolmasa, yordamchi vositalar: dekoratsiya va jihozlar keraksizday; musiqa aktyor aybini yopuvchi vositaday; yoki uzuq-yuluq joylarni yamab turgan yamoqday tus oladi" [4, 288-b]. Agar aktyor aqli va ko'zi bilan professional va hissiy ishlashni bilmas ekan, u bir lahzada eng kuchli xarakterli obrazlarni ham eng passiv personajga, eng ma'noli so'zlarni ham quruq dialog va baqir-chaqirga aylantirib qo'yishi mumkin. Gulchehra obrazi faqat individual obraz emas, u tipik qahramon. Gulchehra o'sha davr yoshlarning muammolari, ayniqsa qizlar oldidagi tanlovlar, orzu va haqiqat to'qnashuvining ramzi hisoblanadi. Dilafruz Mameshova ushbu obrazini maksimal darajada ifodalashga harakat qilgan. Biroq, obrazdagi ichki kurash, ta'sirchan xarakter, fojiali tanlov qarshisida qolgan ojiz qizni ifodalashda biroz sun'iylikka berilgan.

Roman bilan uning ohanglari asosida yaratilgan spektaklni taqqoslashdan maqsad, sahna asarini tanqid yomg'iri ostida qoldirish emas. Balki asarning boy mazmuni, murakkab xarakterlar yig'indisidan to'g'ri foydalanilganligini tahlil etgan holda, yosh qahramonlar xarakterini ochib berishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek dramaturgiyasida yoshlar mavzusini yoritishda alohida o'rin egallagan O'lmas Umarbekov ijodi tahlili quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

Birinchidan, dramaturgning asarlarida yosh qahramon obrazi murakkab ijtimoiy-psixologik konflikt zaminida quriladi: bir tomondan, yoshlikka xos sof emotsional intilishlar, ideallashtirilgan orzu-umidlar aks etsa, ikkinchi tomondan, hayotiy tajriba yetishmovchiligi natijasida yuzaga keladigan xatoli xulosa chiqarish hodisasi tragik yechimga olib keluvchi dramaturgik vosita sifatida namoyon bo'ladi;

Ikkinchidan, muallif yosh qahramon xatolarini shaxsiy nuqson sifatida emas, balki ijtimoiy-tarbiyaviy bog'liqlik natijasi sifatida talqin etadi, ya'ni konflikt manbai qahramonning o'zida emas, balki uni o'rab turgan ijtimoiy muhit va tarbiya institutlari nomukammalligida izlanadi. Bu yondashuv dramaturgning ijtimoiy tanqid poetikasiga xos xususiyat sifatida baholanishi mumkin.

Uchinchidan, tahlil qilingan asarlarning badiiy-emotsional yo'nalishi umuman pessimistik ohangga ega bo'lib, bu holat ikki omil bilan izohlanadi: a) asarlar yaratilgan davrning ijtimoiy-tarixiy konteksti va o'sha davr yoshlarining ruhiy holati; b) muallifning individual badiiy dunyoqarashi va uning ijodiy uslubiga xos subyektiv-lirik yo'nalish. Bu ikki omilning o'zaro ta'siri dramaturgning tragizm poetikasini shakllantirgan asosiy manba sifatida qaralishi lozim.

To'rtinchidan, nasriy asarni sahna talqiniga ko'chirishda xarakter yaxlitligini saqlash – ayniqsa final qismida – rejissura va aktyorlik jihatdan alohida mahorat talab etadigan jarayon ekani aniqlandi: "Fotima va Zuhra" spektaklida bu vazifa muvaffaqiyatli hal etilgan bo'lsa, "Sadoqat" spektaklida tragik xarakterning dramatik qahramonga aylanishi asar badiiy kuchining muayyan darajada pasayishiga sabab bo'lgan.

Beshinchidan, so'nggi davr teatr amaliyotida kuzatilayotgan talqin tamoyillarining yangilanishi, ya'ni klassik asarlarning g'oyaviy-syujet negizini saqlagan holda ularni zamonaviy sahna tiliga moslashtirish, tragik pafosni yumshatib, ijobiy-konstruktiv yechimlar bilan boyitish tendensiyasi – muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon nafaqat dramaturgik merosning aktuallashtirish (zamonaviylashuvi)ni, balki teatr san'atining tomoshabin bilan muloqot strategiyasidagi tub o'zgarishni ham aks ettiradi: didaktik-tragik pafosdan tomoshabinni hamfikrlik va umidga chorlovchi dialogik-terapevtik funksiyaga o'tishi kuzatiladi. Shu tarzda, O'lmas Umarbekov dramaturgiyasi misolida yoshlar mavzusining badiiy talqini nafaqat muayyan davr ijtimoiy-axloqiy muammolarini aks ettiruvchi ko'zgu, balki teatr san'atining jamiyat bilan doimiy muloqotda bo'lishini ta'minlovchi dinamik mexanizm sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, individual xarakterlar, keskin burilishlar, o'tkir konfliktlar aks etgan dolzarb mavzulardagi bu kabi asarlar yoshlar auditoriyasi uchun juda zarur. Shunday ekan, yoshlar mavzusiga bag'ishlangan asarlarni teatr repertuarlariga qaytarish, yangi nazar, yangi aktyorlar ijrosida ularni jonlantirish bugungi kunda, repertuarda zamonaviy asarlarga talablar katta bo'lgan bir davrda, teatr repertuarini boyitgani holda, yoshlarni teatrga yaqinlashtirishda bir turtki bo'lsa ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. – 279 b.*
2. *Aristotel. Poetika. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – 149 b.*
3. *Ma'suda Otajonova bilan suhbat. – Toshkent, 2021-yil may.*
4. *Umarov M., Yuldashev T. Rejissyorlik va aktyorlik san'ati asoslari. – Toshkent: O'zDSMI, 2018. – 343 b.*
5. *Zufarov U. Sahna talqini va tahlil. – Toshkent: Musiqa nashriyoti, 2007. – 74 b.*